XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 17 - fevral VI-41-31-4-0-K/22 Qashqadaryo viloyati hokimligi

Chiroqchi tumani tarkibida «Yettitom» shaharchasini tuzish hamda «Yettitom» shaharchasi chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 3-, 10-, 20- va 31-moddalariga muvofiq hamda Chiroqchi tumani hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 01-20-sonli iltimosnomasi va xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining takliflarini inobatga olib, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Chiroqchi tumani hokimining 2022-yil 31-yanvardagi 01-20-sonli iltimosnomasi ma’qullansin.

2. Chiroqchi tumanining “Oltin dala” va “Xo‘jaobod” mahalla fuqarolar yig‘inlaridan iborat bo‘lgan 6348,0 gektar yer maydonida “Yettitom” shaharchasi tuzilsin hamda “Yettitom” shaharchasi yangidan tashkil etilayotgan Ko‘kdala tumanining ma’muriy markazi etib belgilansin.

3. “Yettitom” shaharchasi chegaralarining tavsifi va chizma shakllari 1- va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya Raisi **Ravshanov O. P.**

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 17 февралдаги
VI-41-31-4-0-K/22-сон қарорига
1-илова

Yettitom shaharchasi chegaralari chizig‘ining

T A V S I F I

Chegara chizig‘i Qarshi – Samarqand A-378-avtomobil yo‘li va Chiroqchi-Ko‘kdala-Sho‘rbozor avtomobil yo‘lining kesishgan joy 1-nuqta boshlang‘ich deb qabul qilindi (WGS-84 koordinatalar o‘lchamida, shimoliy kenglik 39°12’58.65", sharqiy uzunlik 66°14’42.80").

1-nuqtadan chegara Chiroqchi-Ko‘kdala-Sho‘rbozor avtomobil yo‘li sharq tomoni bo‘ylab 2068 metr masofani bosib o‘tib 2-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 39°12’46.77", sharqiy uzunlik 66°16’7.42").

2-nuqtadan chegara chizig‘i Chiroqchi-Ko‘kdala-Sho‘rbozor avtomobil yo‘lining janubiy-janubiy-sharqiy tomonidagi dala tuproq yo‘li bo‘ylab avval 3088 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda dala tuproq yo‘li bo‘lab 1029 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishdagi dala tuproq yo‘li bo‘ylab 1250 metr masofani bosib o‘tib “Annaro‘z” va “Beglamish” mahalla fuqarolar yig‘ini hududlari tutashgan joydagi dala tuproq yo‘li kesishgan 3-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 39°10’31.08", sharqiy uzunlik 66°14’50.70").

3-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘li bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7334 metr masofa bo‘ylab avval G‘uzor-Samarqand 4R-87-avtomobil yo‘lini, keyin Qarshi – Samarqand A-378-avtomobil yo‘lini va Beglamish kanalini kesib o‘tib, Ko‘kdala-Beglamish avtomobil yo‘liga borib tutashgan 4-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 39°11’15.33", sharqiy uzunlik 66° 9’57.43").

4-nuqtadan chegara chizig‘i Ko‘kdala-Beglamish avtomobil yo‘li bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4945 metr masofa bosib o‘tib Yettitom-Ko‘kdala avtomobil yo‘liga borib 5-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 39°13’36.78", sharqiy 66°10’50.49").

5-nuqtadan chegara chizig‘i Yettitom-Ko‘kdala avtomobil yo‘lining shimol tomoni bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3884 metr masofa bosib o‘tib, Qumdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi chegarasiga borib 6-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 39°14’50.11", sharqiy 66° 8’42.76").

6-nuqtadan chegara chizig‘i xo‘jalik ichki arig‘ining g‘arb tomoni bo‘ylab shimolliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1946 metr masofa bosib o‘tib Eski Ko‘kdala kanaliga borib tutashadi va kanalining janub tomoni bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 5626 metr masofani bosib o‘tib Ayritom-Ko‘kdala avtomobil va Eski Ko‘kdala kanali kesishgan joydagi ko‘prikda joylashgan 7-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 39°16’12.39", sharqiy 66°12’49.88").

7-nuqtadan chegara chizig‘i xo‘jalik Ayritom-Ko‘kdala avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 3504 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishi bo‘ylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4302 metr masofa bosib o‘tib, Qarshi – Samarqand A-378-avtomobil yo‘li borib tutashadi va Qarshi–Samarqand A-378-avtomobil yo‘li sharq tomoni bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 2166 metr masofani bosib o‘tib, 1-nuqtada joylashgan Qarshi – Samarqand A-378-avtomobil yo‘li va Chiroqchi-Ko‘kdala-Sho‘rbozor avtomobil yo‘lining kesishgan chorrahasiga borib tutashadi (shimoliy kenglik 39°12’58.65", sharqiy uzunlik 66°14’42.80").

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 17 февралдаги
VI-41-31-4-0-K/22-сон қарорига
2-илова

Yettitom shaharchasi

CHIZMASI

